


VI. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **6 317** ta kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi (2022- yilning shu davriga nisbatan 3,9 %ga kamdir).

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr holatiga, jamiga nisbatan %da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 2 594 ta (jami tashkil etilgan subyektlarning 41,0 %), sanoatda 1 397 ta (22,1 %), xizmatlar sohasida 1389 ta (22,0 %), qurilishda 370 ta (5,9 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 567 ta (9,0 %), tashkil etilgan.

2023- yilning yanvar-sentabr holatiga kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) soni 54 186 ta (o'tgan yilning shu davrida 47 562 ta)ni tashkil etdi. Shundan faoliyat ko'rsatayotganlari esa 36 359 tani (jamiga nisbatan 67,1 %) tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar birklikda

	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2023- yil yanvar- sentabr</i>	<i>Farqi (+;-)</i>
Farg‘ona viloyati	6 572	6 317	-255
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	934	1144	210
Qo‘qon	621	499	-122
Quvasoy	253	384	131
Marg‘ilon	406	456	50
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	341	308	-33
Qo‘shtepa	270	246	-24
Bag‘dod	289	251	-38
Buvayda	338	265	-73
Beshariq	337	225	-34
Quva	291	363	-112
Uchko‘prik	279	247	72
Rishton	299	224	-32
So‘x	183	179	-75
Toshloq	402	394	-4
O‘zbekiston	331	247	-8
Farg‘ona	266	211	-84
Dang‘ara	353	302	-55
Furqat	198	182	-51
Yozyovon	181	190	-16

2023- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil topgan jami kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi
2023- yil yanvar-sentabr holatiga, jamiga nisbatan, %da




2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Farg'ona shahrida - 18,1 %, Qo'qon shahrida - 7,9 %, Marg'ilon shahrida - 7,2%, Toshloq tumanida - 6,2%, Quvasoy shahrida - 6,1 %, Quva tumanida 5,7 %, Oltiariq tumanida - 4,9 %, Dang'ara tumanida - 4,8 %ni tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

birklikda

	2022- yil yanvar- sentabr	2023- yil yanvar- sentabr	Farqi (+;-)
Jami	6 572	6 317	-255
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	408	567	159
Sanoat	1 428	1 397	-31
Qurilish	408	370	-38
Savdo	2 926	2 594	-332
Tashish va saqlash	212	264	52
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	440	320	-120
Axborot va aloqa	129	235	106
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	139	103	-36
Boshqa faoliyat turlari	482	467	-15


2023- yilning yanvar- sentabr oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p savdoda – 2 594 ta, shuningdek :






2023-yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga 9,1 birlikni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Farg‘ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni ¹⁾
(har 1000 aholiga, birlikda).



2023- yilning yanvar-sentabr oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 18,4 birlik, Quvasoy shahrida 14,5 birlik, Marg'ilon shahrida 13,0 birlik, Qo'qon shahrida 12,6 birlik, So'x tumanida 11,9 birlik, Dang'ara tumanida 10,0 birlik, Oltiariq tumanida 9,0 birlikni tashkil etdi. Beshariq tumanida 5,2 birlikka teng bo'lib, ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib qolmoqda.

2023- yilning yanvar-sentabr oyida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni¹⁾
(har 1 000 aholiga, birlikda).




¹⁾ Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olgan holda)

¹⁾ Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olgan holda)

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini ko'payish dinamikasi, %da

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 69,6 %ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-sentabr oyida 69,0%).
YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining kaavgustishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>Farqi (+;-)</i>
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	44 882	36 359	-8 523
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar	birlik	6 572	6 317	-255
<i>Kichik tadbirkorlik ulushlari:</i>				
YaHM	%	69,0	69,6	0,6
Sanoat	%	41,2	45,8	4,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,4	96,8	-0,6
Investitsiya	%	64,1	61,8	-2,3
Qurilish	%	85,4	79,5	-5,9
Chakana savdo	%	91,6	91,4	-0,2
Xizmatlar	%	64,7	65,2	0,5
Yuk tashish	%	89,8	92,4	2,6
Yuk aylanmasi	%	93,9	94,2	0,3
Yo'lovchi tashish	%	96,3	96,1	-0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,6	97,3	-0,3
Eksport	%	49,4	68,9	19,5
Import	%	71,5	82,5	11,0

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

(yanvar-sentabr, %da)



Hududlar bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushlari


(2023- yil yanvar-sentabr holatiga, jamiga nisbatan, % da)

Hududlar	Sanoat		Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi		Investitsiyalar		Qurilish	
	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil
Viloyat	41,2	45,8	97,4	96,8	64,1	61,8	85,4	79,5
shaharlar:								
Farg'ona	21,2	28,9	91,3	92,1	35,5	43,4	86,0	86,2
Qo'qon	30,6	37,3	99,0	94,9	85,8	71,8	85,6	87,9
Quvasoy	35,4	33,8	100,0	95,0	78,8	76,9	80,0	97,7
Marg'ilon	96,5	96,1	100,0	100,0	80,3	74,2	51,8	45,4
tumanlar:								
Oltiariq	45,5	52,1	97,2	98,0	81,9	80,0	99,7	99,7
Qo'shtepa	28,6	49,2	98,8	98,1	94,1	94,2	99,5	65,3
Bag'dod	71,6	65,3	97,9	97,7	74,9	60,4	94,3	91,2
Buvayda	85,5	74,1	100,0	100,0	86,0	90,9	99,7	88,8
Beshariq	100,0	75,9	97,3	97,0	56,0	65,4	94,7	89,9
Quva	25,3	47,0	99,2	99,1	55,6	50,9	99,4	69,9
Uchko'prik	84,4	72,0	99,9	99,9	96,5	91,0	99,6	99,8
Rishton	56,1	66,0	97,9	98,4	48,0	25,9	99,1	99,6
So'x	100,0	100,0	88,8	93,5	28,5	44,6	85,3	99,1
Toshloq	11,9	17,7	97,8	98,2	68,2	73,1	99,7	99,7
O'zbekiston	49,7	55,1	99,1	98,9	89,1	68,7	99,4	51,1
Farg'ona	25,0	24,7	87,6	83,4	34,4	28,9	91,2	75,2
Dang'ara	67,8	77,3	99,4	99,1	57,3	55,8	45,9	64,2
Furqat	95,5	100,0	100,0	100,0	71,3	81,2	99,4	99,7
Yozyovon	100,0	100,0	97,6	97,1	48,6	27,4	84,2	81,1

davomi


	Xizmatlar		Savdo		Eksport	
	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil
Viloyat	64,7	65,2	91,6	91,4	49,4	68,9
<i>shaharlar:</i>						
Farg‘ona	45,6	46,6	84,7	86,9	45,9	56,3
Qo‘qon	70,5	70,2	93,8	92,5	13,3	56,8
Quvasoy	78,5	78,7	86,9	93,5	72,7	84,8
Marg‘ilon	84,7	85,1	98,0	97,8	94,0	99,7
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	84,8	84,3	93,2	93,7	96,0	97,2
Qo‘shtepa	81,1	80,7	98,9	98,1	9,8	56,0
Bag‘dod	75,6	74,6	97,1	96,8	100,0	70,9
Buvayda	59,5	58,9	96,4	97,2	72,0	71,1
Beshariq	71,3	70,6	97,5	97,5	100,0	56,0
Quva	66,8	65,8	97,5	98,0	52,0	54,1
Uchko‘prik	65,8	71,2	66,2	61,1	98,8	87,3
Rishton	74,1	73,7	96,6	96,6	62,5	46,4
So‘x	84,1	84,6	98,5	98,5	100,0	100,0
Toshloq	74,4	73,1	98,2	98,1	12,1	30,1
O‘zbekiston	71,9	71,9	96,5	96,0	60,0	47,6
Farg‘ona	69,8	71,1	98,3	98,3	58,4	43,9
Dang‘ara	77,3	77,4	97,1	97,0	43,6	77,1
Furqat	84,2	83,9	97,9	97,7	42,7	100,0
Yozyovon	86,3	86,7	97,5	97,8	100,0	100,0

2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 523,5 mln. AQSh doll.ni yoki umumiy eksport hajmining 68,9 %ni tashkil etdi.






Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumani – 100,0 %, Furqat tumani – 100,0 %, Yozyovon tumani – 100,0 %, Marg'ilon shahrida – 99,7 %, Oltiariq tumani – 97,2 %, Uchko'prik tumani – 87,3 %, Quvasoy shahrida – 84,8 %, ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Toshloq tumani – 30,1 %ni tashkil etdi.



2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 964,4 mln. AQSh doll.ni yoki umumiy importning 82,5 %ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmat) importining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Oltiariq tumanida - 100,0 %, So'x tumanida - 100,0 %, Furqat tumanida - 100,0 % Yozyovon tumanida - 100,0%, Marg'ilon shahrida - 99,9 %, Dang'ara tumanida - 96,9 %, Buvayda tumanida - 96,1 %ga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatkich Rishton tumanida - 35,6 %ni tashkil etdi.



2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari 10 966,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik
tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti
ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm**




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahar (1822,6 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (1577,2 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (1392,6 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (932,1 mlrd. so'm) va Qo'shtepa (410,7 mlrd. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (77,5 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2023- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 45,8 %ni tashkil etdi.



**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida jami sanoat
mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi, %da**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi So'x tumani (100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg'ilon shahari (96,1 %), Dang'ara tumani (77,3 %) Beshariq tumani (75,9 %), va Buvayda tumani (74,1 %), hissasiga tegishli. Toshloq tumanida (17,7 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 15 270,1 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana tovar aylanmasining 91,4 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,0 %ni tashkil qildi.



**2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana
savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Farg'ona shahri (2815,2 mlrd.so'm), Qo'qon shahri (2802,5 mlrd.so'm), Marg'ilon shahri (2415,4 mlrd.so'm), Quva tumani (828,1 mlrd.so'm), Uchko'prik tumani (821,6 mlrd. so'm) Buvayda tumani (710,4 mlrd.so'm), va So'x tumani (175,0 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keldi.




2023- yil yanvar - sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi

5 728,0 mlrd.so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 79,5 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 104,5 %ni tashkil etdi



2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona (1695,5 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (541,4 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (417,8 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (392,3 mlrd. so'm), Toshloq tumani (307,2 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (276,7 mlrd. so'm) hamda Quva tumani (229,0 mlrd.so'm) tumanida qayd etildi.




shahri

2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 12 435,5 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 65,2 %ni tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 107,7 %ga o'sish kuzatildi.






**2023- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar
sohasi hajmi va o'sish sur'ati**





Hududlar bo'yicha eng yuqori xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (2 981,9 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (2 328,0 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (1 420,9 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (695,7 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (496,8 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (420,0 mlrd. so'm), va Buvayda tumani (399,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2023- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 92,4 %ni tashkil etdi. 2022- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 %ni tashkil qildi.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 94,2%ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 %ni tashkil qildi.



2023- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,1 %ni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 101,6 %ni tashkil qildi.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,6 %ni tashkil etib, 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 103,2 %ni tashkil qildi.

